

# Teplovoz bilan manyovr xizmatini ko'rsatish to'g'risida

Shartnoma № 5



Kogon shahar  
(shartnoma tuzish joyi)

2022 yil 05 yanvar  
(shartnoma tuzish sanasi)

AJ O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI (00049 - 6-SON BUXORO LOKOMOTIV DEPOSI (STIR 203791118)) (bundan buyon - "Bajaruvchi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor **XOLMURADOV JALOLIDDIN RAXMANOVICH**, bir tomondan, va "1-SON ENERGIYOMONTAJ POEZDI" UK (bundan buyon - "Buyurtmachi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor **SAFARBEKOV ANVARBEK SAFARBEKOVICH**, ikkinchi tomondan, birgalikda "Taraflar", alohida esa "Taraf" deb ataluvchilar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

## 1. Tovar (xizmat)larning to'liq tafsiloti:

Ushbu shartnomaga binoan, Mijoz to'laydi va qabul qiladi va ijrochi quyidagi shartlar asosida tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beradi:

Shartnomaning umumiy miqdori To'rt yuz yetti million to'qqiz yuz to'kson yetti ming so'm 0 tiyin (summa so'zlar bilan).

№s	Tovar nomi (xizmat)	Tovar (xizmat)lar Yagona elektron milliy katalogi bo'yicha identifikatsiya kodi va nomi	Tovar/xizmat shtrix kodi	O'lchov birligi	Miqdori	Narx	Yetkazish bahosi	QQS		Yetkazish bahosi QQS bilan
								stavka	summa	
1	Teplovoz manyovr xizmati	10112007001000000 - Транспорт-экспедиторлик хизмати		soat	8 760,00	40 500,00	354 780 000,00	15,0000	53 217 000,00	407 997 000,00

1.1 Xizmatlarni pullik ko'rsatish shartnomasi bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga teplovoz mashinisti, teplovoz mashinist yordamchisi va teplovoz bilan manyovr xizmatini ko'rsatib berish majburiyatini, "Buyurtmachi" esa ko'rsatilgan xizmatlar uchun Bajaruvchiga mazkur shartnomada belgilangan haq to'lash majburiyatlarini o'z zimmlariga oladilar.

## 2. Muhim shartlar:

2.1 Teplovoz bilan manyovr xizmatlarini ko'rsatish uchun ushbu shartnoma summasi ЧЭМ-3-rusumli teplovoz uchun QQS bilan taxminan 407 997 000 so'mni tashkil qiladi

## 3. To'lov tartibi, majburiyatlarni bajarish shartlari va muddati

3.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga xar o'nying 10-kunidan kechiktirmay ko'rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan 15 foiz to'lovni, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha qolgan 85 foiz summani haqiqiy xolatdan kelib, shu o'nying 30 kuni mobaynida O'zbekiston Respublikasi xududida amalda bo'lgan to'lov shakli bo'yicha to'lab berish.

## 4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. Bajaruvchi: 4.1.1. Manyovr xizmatlarini ko'rsatish uchun teplovoz mashinisti va teplovoz mashinist yordamchisi bilan birta ЧЭМ-3-rusumli teplovni ajratish; 4.1.2. Uzuksiz va sifatli manyovr xizmati ko'rsatilishini ta'minlash uchun teplovning lokomotiv brigadasi teplovozlardan foydalanish koidalari (PTE), xizmat yo'riqnomalariga, bekatning texnik taqsimot dalolatnomalariga (TRA) va Buyurtmachining ish joyi yo'riqnomalariga to'liq amal qilish; 4.1.3. Xar oyda Lokomotiv brigada tomonidan oy 30 kun bo'lganda - 720 lok/soat, 31 kun bo'lganda -744 lok/soat teplovoz manyovr xizmatlarini ko'rsatib berish; 4.1.4. Xar o'nying 10 sanasiga qadar, ikkala tomonning ma'sul xodimlari tomonidan imzolangan yo'l marshrut varaqlariga asosan bajarilgan manyovr xizmati uchun 1 lok/soatiga QQS bilan birga 46575 so'm miqdorida xamda dizel yoqilg'isi va moyi sarfi miqdori uchun hisob-varaqa taqdim etish; 4.1.5. Xar oyda ishlab chiqiladigan jadvalga muvofiq teplovoz TO-3 va TP-1 ko'rinishidagi ta'mir yoki profilaktik ko'rikka olingan vaqtda, ta'mirga olingan teplovoz o'rniga boshqa teplovoz berilishini ta'minlash, joriy ta'mirga yoki ko'rikka olingan teplovni Marokand bekatigacha kelib ketish dizel yoqilg'isi sarfi Buyurtmachi hisobidan qoplanadi. 4.2. Buyurtmachi: 4.2.1. Bajaruvchiga ishlangan oy uchun teplovoz lokomotiv brigadalarining yo'l marshrut varaqlari asosida teplovoz manyovr xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha sutkasiga 24 lok/soat uchun xaq to'lab berish; 4.2.2. Oy mobaynida ko'rsatilgan teplovoz manyovr xizmatlari uchun 1 lok/soatiga QQS bilan birga 46575 so'm shartnomaviy narxdan kelib chiqib bir oy uchun: 30 kunda 720lok/soat x 46575 so'm = 33534000 so'm yoki 31 kunda 744lok/soat x 46575 so'm = 34651800 so'm miqdorida hamda dizel yoqilg'isi va moyi sarfi miqdori uchun to'lovni Bajaruvchini hisob raqamiga pul ko'chirish yo'li bilan yoki temir yo'l ichki hisob kitobi orqali to'liq to'lab berish.

## 5. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Buyurtmachi ko'rsatilgan manyovr xizmatlarini qabul qilgandan so'ng Bajaruvchi tomonidan yuborilgan elektron hisob varak-fakturani 10 kalendar kunida qabul qilish yoki asoslangan xolda rad etishi lozim. Agarda Buyurtmachi Bajaruvchi tomonidan yuborilgan elektron hisob varak-faktura Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan munosabat bildirmasa(kabul qilish yoki rad etish), Bajaruvchi tomonidan Buyurtmachiga yuborilgan elektron hisob varak-faktura Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi. 5.2. Bajaruvchining aybi bilan manyovr xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, bajaruvchi buyurtmachiga ko'rsatilmagan xizmatlarning xar bir kuni uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya tulaadi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.(Ko'rsatilmagan manyovr xizmati taraflar o'rtasida tuzilgan dalolatnoma asosida tasdiqlanishi zarur.) 5.3. Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan manyovr xizmati haqini 90 kun ichida to'lamaganlik uchun Bajaruvchiga o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi. 5.4. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 29.08.1998 yildagi «Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-hukukiy bazasi to'g'risida»gi qonuni va boshqa taraflar uchun bajarish majburiy bo'lgan me'yoriy xujjatlar bilan tartibga solinadi. 5.5. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmaslik Bajaruvchiga to'lov masalasi hal etilgunga qadar teplovoz manyovr xizmatlarini ko'rsatmaslik huquqini beradi.

## 6. Nizolarni bartaraf qilish tartibi

6.1. Shartnomani bajarish yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqqan nizolar ikki tomonning kelishuvi asosida hal etiladi. Tomonlar kelishuvi orqali hal etilmagan nizolar tegishli sud orqali hal etiladi.

## 7. Tovar (xizmat)larni qabul qilish topshirish tartibi

7.1. Teplovoz manyovr xizmatlari ko'rsatilgandan so'ng Buyurtmachiga elektron shaklda hisob varak - faktura xar o'nying 10 sanasidan kechiktirmasdan taqdim etish.

## 8. Shartnomani o'zgartirish va tugatish tartibi

8.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy deb hisoblanadi. 8.2. Shartnomani muddatidan ilgari bekor qilish taraflarning kelishuvi bo'yicha yoxud O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va amaldagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha etkazilgan zararlarni qoplash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

## 9. FORS-MAJOR

9.1. Taraflarga bog'lik bo'lmagan favkulot tusidagi holatlar sodir bo'lsa yoki shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasa, taraflar javobgarlikdan ozod etiladilar.

## 10. Boshqa shartlar

10.1. Buyurtmachi marshrut varakasi asosida xaqiqatda sarflangan dizel yoqilg'isi va moyi uchun KKSni qo'shib hisoblagan holda to'lovni amalga oshiradi. 10.2. Manyovr xizmatlarini bajaruvchi teplovoz lokomotiv brigadasini operativ boshqarish Buyurtmachining xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. 10.3. Teplovoz manyovr xizmatlarini ko'rsatishda harakat xavfsizligini ta'minlash Buyurtmachi va Bajaruvchi zimmasiga yuklanadi. 10.4. Manyovr xizmatlari ko'rsatish uchun ishga chiquvchi lokomotiv brigadalarini texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomadan o'tkazish Buyurtmachi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. 10.5. Bajaruvchi va Buyurtmachi ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida xom ashyo, materiallar, elektr energiya, suv, shuningdek, ish haqi miqdori va boshqa xarajatlarning narxlari o'zgartirish taqdirda, manyovr xizmatlari ko'rsatish uchun shartnoma bahosini o'zgartiradilar. Buyurtmachi oldindan narx o'zgarishi haqida xabardor qilinadi. Agar

narx o'zgarsa, shartnoma narxi ham o'zgaradi. 10.6. Ushbu shartnoma 2022 yilning 01 yanvaridan kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabriga qadar amal qiladi. 10.7. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir nusxadan taraflarda saklanadi. 10.8. Shartnomaning amal qilishi bajarilmagan majburiyatlarning bekor bo'lishiga olib kelmaydi. 10.9. Tomonlarning kelishuviga ko'ra shartnoma kelishilgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

## 11. TOMONLARNI YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

### IJROCHI

Nomi: AJ O`ZBEKISTON TEMIR YO`LLARI (00049 - 6-SON BUXORO LOKOMOTIV DEPOSI (STIR 203791118))

Manzili: TARAS SHEVCHENKO KO`CHASI, 7-UY

Tel.:

Faks:

STIR: 201051951

OKED: 49200

H/R: 20210000904160917001

Bank: ТОШКЕНТ Ш., ТИФ МИЛЛИЙ БАНКИНИНГ МИРОБОД ФИЛИАЛИ

MFO: 00875

### BUYURTMACHI

Nomi: "1-SON ENERGOMONTAJ POEZDI" UK

Manzili: TOSHKENT SHAHRI, MIROBOD TUMANI, TOLLIMARJON, 10,

Tel.: 2799680

Faks:

STIR: 200796057

OKED: 42220

H/R: 20210000500122861001

Bank: ТОШКЕНТ Ш. "ДАВР-БАНК" ХАЕТ БАНКИНИНГ МИРЗО-УЛУГБЕК ФИЛ-И

MFO: 01072

№2005586235 19.01.2022 18:04:00

YUBORILGAN

XOLMURADOV JALOLIDDIN RAXMANOVICH

operator: soliqservis.uz

№2005990884 20.01.2022 11:05:30

TASDIQLANGAN

SAFARBEKOV ANVARBEK SAFARBEKOVICH